

FORTEPIANO IJROCHILIGIDA POLIFONIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VAZIYATLARI VA USLUBIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.037>

Akbar-Mirzo Sobirjonov
sobirjonovakbarmirzo@gmail.com
Qo‘qon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada fortepiano darslarida o‘quvchi va talabalarning polifonik tafakkurini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari kompleks tarzda yoritiladi. Polifoniya janridagi asarlar ustida ishlash jarayonida yuzaga keladigan pedagogik vaziyatlar tizimli tahlil qilinib, ovozlar mustaqilligini ta‘minlash, vertikal va gorizontali eshitishni shakllantirish, imitatsion tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqotda musiqiy-pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil va ijrochilik amaliyoti metodlaridan foydalanilgan. Maqola musiqa pedagoglari, magistrantlar hamda fortepiano ijrochiligi yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: polifoniya, fortepiano ijrochiligi, polifonik tafakkur, pedagogik vaziyat, I.S.Bax, G.F.Hendel, imitatsiya, ovozlar mustaqilligi, intonatsiya, artikulyatsiya

PEDAGOGICAL SITUATIONS AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING POLYPHONIC THINKING IN PIANO PERFORMANCE

Akbar-Mirzo Sobirjonov
sobirjonovakbarmirzo@gmail.com
Kokand State University

Abstract: This article comprehensively examines the theoretical and practical aspects of developing students’ polyphonic thinking in piano lessons. The pedagogical situations that arise in the process of working on polyphonic repertoire are systematically analyzed, and methodological recommendations are developed for ensuring voice independence, forming vertical and horizontal listening skills, and developing imitative thinking. The study employs methods of musical-pedagogical observation, comparative analysis, and performance practice. The article is intended for music educators, master’s students, and students specializing in piano performance.

Keywords: polyphony, piano performance, polyphonic thinking, pedagogical situation, I.S. Bach, G.F. Handel, imitation, voice independence, intonation, articulation

Fortepiano ijrochiligi san'atida polifonik asarlar bilan ishlash musiqiy tafakkurni shakllantirishning eng murakkab va mas'uliyatli bosqichlaridan biri hisoblanadi. Polifonik tafakkur - bu musiqiy fakturada har bir ovozning mustaqilligini anglash, ularning o'zaro muloqotini eshitish va badiiy jihatdan ifodalash qobiliyatidir. Zamonaviy musiqa pedagogikasida polifoniya ustida ishlash oddiy texnik mashq sifatida emas, balki ko'p qatlamli intellektual-eshitish faoliyati sifatida talqin etiladi.

Ilmiy adabiyotlarda polifonik tafakkur rivoji ijrochining eshitish differensiasiyasi, diqqatni taqsimlash qobiliyati, motor-musiqiy koordinatsiyasi, stilistik tafakkuri bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlanadi. Ayniqsa barokko davri kompozitorlari - Iogann Sebastyan Bax va Georg Fridrix Gendel ijodi polifonik tafakkurni shakllantirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot umummetodik tahlil, qiyosiy musiqiy tahlil, pedagogik kuzatuv, ijrochilik tajribasini umumlashtirish kabi bir qator metodlarga tayangan holda amalga oshirildi. Tahlil obyekti sifatida barokko davri polifonik asarlari (inventionlar, fugal, syuitalar) hamda talabalarning dars jarayonidagi ijro muammolari olindi.

Polifonik tafakkur - bu ko'p ovoqli musiqiy matnni ko'p qatlamli eshitish va boshqarish jarayonidir. U gorizontal eshitish - har bir ovozning melodik rivojini kuzatish; vertikal eshitish - bir vaqtning o'zida yangrayotgan tovushlar uyg'unligini anglash; tembral differensiasiya - ovozlarni rang jihatdan ajratish; metro-ritmik mustaqillik - qo'llarning ritmik erkinligi; diqqatni taqsimlash - bir necha jarayonni parallel boshqarish kabi komponentlardan tashkil topadi. Psixologik nuqtai nazardan, bu jarayon miya yarimsharlarining murakkab koordinatsiyasini talab qiladi. Shu sababli polifoniya ustida ishlash ijrochining umumiy musiqiy intellektini sezilarli rivojlantiradi.

Amaliyotda o'quvchilar ko'pincha yuqori ovozni yetakchi qilib, qolgan ovozlarni fon sifatida chalishga moyil bo'ladilar. Bu - eng tipik pedagogik muammo. Ushbu muammolarni bartaraf qilishda har bir ovozni alohida kuylab chiqish, ovozlarni navbatma-navbat yetakchi qilish, pastki ovozni forte, yuqorini piano chalish mashqlari, qo'llarni almashlab chalish kabi mashlardan foydalanish samarali bo'ladi. Fugalarda va invensialarda esa mavzuning ovozdan ovozga o'tishi o'quvchi tomonidan ongli eshitilishi, his qilinishi kerak. Bunda mavzuni rangli belgilash, mavzu kirgan joylarni og'zaki tahlil qilish, har kirishda dinamik differensiasiya, "savol-javob" eshitish modellarini qo'llash polifonik muloqot hissini shakllantiradi.

Shu ma'noda, polifoniyada artikulyatsiya xuddi notqlikdagi diksiya (talaffuz) kabi xizmat qiladi. Agar barcha ovozlari bir xil artikulyatsiyada ijro etilsa, musiqa

tushunarsiz "shovqin"ga aylanadi. Har bir ovozning o'z "talaffuzi" bo'lishi polifonik matnning polifakturasini (ko'p qatlamliligini) yuzaga chiqaradi.

Polifoniyada artikulyatsiya - bu shunchaki ijro texnikasi emas, balki fakturaning vertikal va gorizontal muvozanatini saqlab turuvchi konstruktiv vositadir. U ovozlarning mustaqilligini ta'minlash orqali asarning intonatsion boyligini ochib beradi.

Artikulyatsiya musiqiy jumalarning chegarasini belgilaydi. Polifoniyada bir ovozda jumla tugayotgan bo'lsa, ikkinchi ovozda u endi boshlanayotgan bo'lishi mumkin.

Sezura (nafas olish): Artikulyatsiya yordamida qo'yilgan kichik intervallar (sezuralar) polifonik matnning "nafas olishiga" va uning polifonik qatlamlarini aniq ko'rinishiga yordam beradi.

Ilmiy-metodik jihatdan qaraganda, polifoniyada artikulyatsiya "musiqiy diksiya" vazifasini o'taydi. Turli artikulyatsiya usullarini birlashtirish (*legato/non legato*), barmoq texnikasiga tayanish va pedalni cheklash orqali ijrochi murakkab musiqiy matnni tinglovchi uchun tushunarli, har bir ovozi alohida eshitiladigan "jonli muloqot"ga aylantiradi. Bir qo'lda *legato*, boshqasida *non legato* qilib ijro qilish orqali ovozlarning "vertikal" bo'yicha aralashib ketmasligini ta'minlash. Masalan, chap qo'ldagi *non legato* (kvarta-kvinta sakrashlarida) asarga ritmik tayanch bersa, o'ng qo'ldagi *legato* (sekundali chiqishda) melodik chiziqning lirikligini ochib beradi. Bu ijrochidan yuqori arajada mustaqillashtirish (koordinatsiya)ni talab qiladi. Barmoq *legatosi* esa polifoniya ijrochiligida - bu texnik mahoratning cho'qqisidir. Bu mashqlar miya faoliyatining polifonik bo'linishini faollashtiradi.

Ko'pchilik talabalar faqat melodik (gorizontal) eshitishga tayanadi. Polifoniya esa vertikal nazoratni ham talab qiladi. Ushbu holatlarda akkordlar bo'yicha to'xtab chalish, garmonik tayanch nuqtalarni aniqlash, ovoz juftliklari bilan ishlash (soprano-alt, tenor-bas), sekin tempda "eshitib chalish" kabi metodlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Ilmiy-amaliy kuzatuvlar va fortepiano pedagogikasi tajribasi shuni ko'rsatadiki, polifonik asarlarni o'zlashtirish jarayoni tasodifiy emas, balki qat'iy metodik ketma-ketlik asosida olib borilganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Ayniqsa boshlang'ich va o'rta bosqich talabalari bilan ishlashda kognitiv yuklamani bosqichma-bosqich oshirib borish tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, quyidagi bosqichli model eng maqbul o'quv algoritmi sifatida tavsiya etiladi:

Asarni tahliliy o'qish. Dastlabki bosqichda talaba notaviy matnni faqat mexanik o'qib chiqmay, balki uning tuzilishi, tonalligi, mavzu kirishlari, imitatsion elementlari va frazlash xususiyatlarini anglab yetishi zarur. Bu jarayon keyingi ijro bosqichlari uchun intellektual poydevor yaratadi.¹

¹ Genrix Neygauz. *Fortepiano ijrochiligi san'ati haqida*. — Moskva: Muzyka, 1982.

Har bir ovozni alohida o'rganish. Polifonik tafakkurni shakllantirishda har bir ovozning melodik mantiqini mustaqil idrok etish hal qiluvchi omildir. Ovozlarni alohida chalish va kuylash orqali talaba ularning intonatsion yo'nalishini, nafasini va artikulyatsion tabiatini chuqurroq his qila boshlaydi.

Ovozlarni juftlab ishlash. Keyingi bosqichda ovozlar o'zaro eshituv muvozanati nuqtai nazaridan juftlab o'rganiladi (masalan, soprano-alt, tenor-bas). Bu usul vertikal eshitishni faollashtiradi va ovozlararo muloqotni ongli ravishda shakllantiradi.²

To'liq fakturada sekin tempda ijro. Barcha ovozlar birlashtirilgach, asarni maksimal darajada sekin tempda ijro qilish tavsiya etiladi. Sekin temp ijrochiga diqqatni taqsimlash, artikulyatsiyani nazorat qilish va garmonik tayanchlarni eshitish imkonini beradi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, aynan sekin temp bosqichi polifonik aniqlikni mustahkamlovchi asosiy pedagogik vositadir.

Badiiy talqin ustida ishlash.

Texnik va eshitish barqarorlashgandan keyingina asarning obrazli mazmuni, dinamik rivoji, agogika va stilistik nozikliklari ustida ishlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Aks holda badiiy talqin tashqi va sun'iy tus olishi mumkin. Mazkur modelning samaradorligi shundaki, u o'quvchining kognitiv resurslarini bosqichma-bosqich safarbar qiladi, ortiqcha psixofiziologik zo'riqishni kamaytiradi va polifonik tafakkurning tabiiy shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagogik amaliyotda quyidagi metodik tavsiyalarga qat'iy amal qilish tavsiya etiladi:

Polifonik asarni dastlab kuylatish majburiy. Kuylash ichki eshitishni faollashtiradi va har bir ovozning intonatsion mustaqilligini ongli ravishda shakllantiradi.

Pedal minimal darajada qo'llansin. Ortiqcha pedal fakturani "xiralashtiradi" va ovozlar differensiasiyasiga putur yetkazadi. Barokko repertuarida pedal asosan yordamchi vosita sifatida ishlatilishi kerak.³

Har darsda eshitish nazorati mashqlari bo'lsin.

Masalan: pastki ovozni ajratib eshitish, mavzu kirishini aniqlash, ovozlarni navbatma-navbat yetakchi qilish.

Barokko stilistikasi alohida tushuntirilsin.

Artikulyatsiya, ornamentika, dinamika va frazalar barokko estetikasi nuqtai nazaridan izohlanishi zarur.

O'quvchining diqqatini "ovozlar dialogi"ga yo'naltirish zarur.

Polifoniya monolog emas, balki ko'p qatlamli musiqiy muloqot ekanini talaba ongli his qilishi kerak.

Sekin temp - polifoniya o'rganishning asosiy vositasi.

² Iogann Sebastyan Bax. *Ikki ovozli invensiyalar va uch ovozli sinfoniyalar*. — Moskva: Muzyka, 1984.

³ Paul Badura-Skoda. *Interpreting Bach at the Keyboard*. — Oxford University Press, 1995.

Tez chalish mahorat belgisi emas; aniqlik va eshituv nazorati ustuvor bo'lishi lozim.

Fortepiano ijrochiligida polifonik tafakkurni rivojlantirish uzoq muddatli, tizimli va ilmiy asoslangan pedagogik jarayondir. U faqat texnik ko'nikmalar bilan cheklanmay, balki eshitish madaniyati, tafakkur moslashuvchanligi va badiiy idrokni kompleks rivojlantiradi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ovozlarning mustaqilligini ongli shakllantirish, imitatsion jarayonlarni eshitish, artikulyatsion kontrastni to'g'ri qo'llash va bosqichli o'qitish modeli polifonik tafakkurni samarali rivojlantiradi. Mazkur yondashuvni tizimli qo'llash natijasida ijrochilar nafaqat barokko polifoniyasini, balki murakkab fakturali zamonaviy asarlarni ham badiiy jihatdan mukammal talqin qila oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bax I.S. Ikki ovozli invensiyalar va uch ovozli sinfoniyalar. - Moskva: Muzyka, 1984.
2. Neigauz G. Fortepiano ijrochiligi san'ati haqida. - Moskva: Muzyka, 1982.
3. Schiff A. Bach Interpretation at the Keyboard. - London: Faber Music, 1997.
4. Badura-Skoda P. Interpreting Bach at the Keyboard. - Oxford University Press, 1995.
5. Usmonov R. Fortepiano pedagogikasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 2010.